

PARFIYA DAVLATINING TASHKIL TOPISHI XORIJIY TADQIQOTLAR NIGOHIDA

Rahimjonov Fayozbek Mirkomil o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
rahimovfayozbek08@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Salavkiylar davlatining zaiflashuvi natijasida vujudga kelgan Parfiya davlatining tashkil topishi uchun vujudga kelgan tarixiy shart-sharotilarning yetilishi, davlatning tashkil topishi, rivojlanishi kabi masalalarning xorijiy tadqiqotchilar tahlili, qarashlari asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Salavkiylar, Parfiya, Salavk, Iskandar Makedonskiy, imperiya.

ABSTRACT

In this article, the development of the historical conditions for the establishment of the Parthian state, which arose as a result of the weakening of the Seleucid state, and the formation and development of the state, are studied based on the analysis and views of foreign researchers.

Key words: Seleucids, Parthia, Salak, Alexander the Great, empire.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Hozirgi globallashgan zamonda tarixning turli masalalarini o‘rganish ustuvor masala sifatida talqin qilinmoqda, xususan tarixiy tajribalarning keng miqiyosda bilish, ulardan kerakli xulosalarni chiqarilishi esa o‘z navbatida ushbu soha vakillari uchun eng kerakli unsur hisoblanadi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada, olis va yaqin o‘tmishimizdagi ko‘pgina voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda” – deb ta’kidlaydi[1:464]. Darhaqiqat Parfiya davlatining tashkil topishi hamda rivojlanish bosqichlarida o‘zbek tarixini ham bezab o‘tganligi ushbu ishning dolzarb hamda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Ushbu ilmiy ishimiz doirasida biz Xorijiy adabiyotlarning ayrim nashrlaridan foydalangan holda mavzuyimizning mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz hamda ish doirasida asosan o‘zbek o‘quvchilari uchun holisona fikrlarimizni taqdim etib boramiz. Mavzuning mohiyatini ochishda asosan Oxford University press nashri tomonidan tavfsiya etilgan mavzuga oid adabiyotlardan foydalanamiz.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Parfiyaliklar miloddan avvalgi 247-yildan 224-yilgacha hukmronlik qilgan bo‘lib, ular g‘arbda O‘rta yer dengizidan sharqda Hindiston va Xitoygacha cho‘zilgan ulkan imperiyani yaratganlar. Parfiyaliklar dastlab salavkiylar tarkibida bo‘lib keyinchalik ulardan ajarab chiqib rimliklarga qarshi kurashib, ular o‘zlarini super kuch sifatida ko‘rsatdilar. Noyob va juda muvaffaqiyatli jangovar uslub, ular bosib olgan keng hududlarni nazorat qilishl hamda imperiyaning turli hudularida savdo aloqalari hamda madaniy ta’sirlarni keng yoyish imkonini berdi. Ushbu madaniy aloqalardan parfiyaliklar nafaqat o‘zlarining Parfiyon me’morchilik uslubini yaratib, boyitish uchun foydalanibgina qolmay, balki o‘ziga xos Parfiya san’ati va liboslarini ham yaratdilar[2:15].

Darhaqiqat Parfiyaliklar haqida so‘z borganda ularning madaniyatlar asosan forsiy madaniyatlar aralashmasi asosida vujudga kelganligi haqida uzuq-yuluq fikrlar qulog‘imizga chalinadi. Ammo shuni alohida inobatga olmog‘imiz lozimki ushbu prototurk qabilalari keng hududlarni o‘zlarining narozatlariga olib, noyob parfiyon me’morchiligi hamda san’atini yaratganlar. Bu esa o‘z navbatida ular yakdil madaniy namunalarning yaratganligining asosidir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Parfiya tarixi Iskandar Zulqarnaynning sarkardalaridan biri Salavk I nomi bilan boshlanadi. Iskandarning o‘limidan so‘ng , uning sarkardalari bosib olingan hududlarni bo‘lishdilar. Salavk bir vaqtlar Forsning markaziy bo‘lgan Mesopotamiya va boshqa tumanlarini egallab, Salavkiylar imperiyasini yaratdi . Yunon boshqaruv infratuzilmasi va ma’murlarini o‘z ichiga olgan Salavk Forsning boshqaruv shaklini qabul qildi. Markaziy hukumatga va oxir-oqibat qironga qarashli satraplar (gubernatorlar) boshchiligidagi tumanlar yoki satrapiyalar bu boshqaruv infratuzilmasining bir qismi hisoblanadi. Parfiya ana shunday satrapliklardan biri edi. Ammo Salavkiylar satrapligi tarkibidan chiqqan Parfiya tez orada imperiyaga aylanadi[3:16].

Qo‘sni davlat Salavkiylaning zaiflashuvi Parfiyaning ajralib chiqib mustaqillik tomon qadam bosishiga turtki bo‘ldi. Shuningdek Salavkiylarning hududlar juda keng, nazorat qilishning qiyinligi bu davlatning zaiflashib parchalanishiga, Parfiya hududining kengayib imperiyaga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Parfiya satrapligi o‘zining siyosiy tarixining yangi bosqichiga kotarilish arafasida Kaspiy dengizining janubi-sharqida joylashgan edi. O‘rta Osiyoning skif madaniyati

bilan bog'liq deb hisoblangan ko'chmanchi parni qabilasi oxir-oqibat Parfiya ustidan nazorat o'rnatdi va bu paytda ular Salavkiylar tarkibida edilar. Salavkiylar ichki urush tufayli zaiflashgan va g'arbda Ptolemylar bilan to'qnashuvda bolgan siyosiy vaziyatda, Parni sharqda o'z hokimyatini mustaqillik sari boshlash uchun harakat qildi. Miloddan avvalgi 247-yilda mahalliy gubernator Andragor Salavkiylar hukmronligiga qarshi qo'zg'olon ko'targach, Parni uchun ozodlik eshiklari ochildi. Salavkiylar ptolomeylar bilan chalg'igan, Andragor kuchsiz ekanini bilgan Parfiyaning birinchi shohi Arsak (mil. avv. 247-217-yillar hukmronligi) qulay vaziyatdan foydalanib, Parfiyani bosib oladi. Salavkiylar hukmdori Antiox III Parfiyani qaytarib olish maqsadida yurish qilib, uni miloddan avvalgi 209-yilda qaytarib oladi. Bu vaqtida Arsakning o'g'li Arsak II (mil. avv. 217-191-yillar hukmronligi) taxtda edi. Antiox uni o'ldirishi mumkin edi, lekin uning o'rniga uni satrap qilib qo'ydi[4:120].

Dastlabki vaziyatlar bir muncha chalkash bo'lib hokimyatning asosi bir qadar shubha ostiga qoldi. Ammo Andragorning faoliyati natijasida mamlakatning ajralib chiqishi uchun qulay vaziyat paydo bo'lib yukalish marralari sarimmo Andragorning faoliyati natijasida mamlakatning ajralib chiqishi uchun qulay vaziyat paydo bo'lib yukalish marralari sari yo'l ochildi.

Antiox Suriyaga jo'nab ketganidan so'ng, Parfiya elitasi ularning bo'ysunishidan norozi bo'lib, Arsak II ni taxtdan ag'dardi va Friapatiyni (miloddan avvalgi 191-176 yillar hukmronligi) uchinchi shoh qilib tayinladi. Miloddan avvalgi 188-yilda Rimliklar bilan tuzilgan Apameya shartnomasiga ko'ra Salavkiylar qudratini pasaytirgandan keyin Friapatiyning o'g'li Frates (miloddan avvalgi 176-171-yillar hukmronligi) Salavkiylar imperiyasiga hujum qildi. Amardiyaliklarni zabit etib, Frates sharqda Girkaniya va janubi-g'arbda Midiya o'rtasidagi hududni egalladi. Shunday qilib, Frates Parfiya uchun katta zafarlar olib keldi, ammo uning o'rniga akasi Mitridat (miloddan avvalgi 171-132 yillar hukmronligi) saylanishi bilan Parfiya butun boshli tarixiy hayoti davomidagi eng katta hududlarga ega bo'ldi[5:15].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Iskandar Zulqarnayn vafotidan keyin yuzaga kelgan davlat asoschisi bo'lmish Salavka hokimyatining yemirilishi hamda Parfiya uchun yakdil davlatning tashkil toppish asoslari mustaxkamlangandan keyin yagona Parfiya davlati tashkil topdi. Salavkiylar garchan qanchalik kuchli bo'lmasin ularning zaiflashuvi tabiiy edi. Chunki juda katta hududlarni egallagan Salavkiylar davlati bundayin keng hududlarni nazoratda ushlashi, bir vaqtning o'zida yon atrofidagi kuchli davlatlarga qarshi tura olish imkoniyatiga ega bo'lguchalik kuchni o'zida jamlamaganligi ham uning parchalanish omillaridan biri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmas. Parfiya davlatiga asos slogan parnilar turkiylarga xos bo'lgan jangovorlik salohiyatiga ega ekanligi ularning keng hududlarga cho'zilgan yaxlit Parfiya imperiyasining tashkil topishig sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev, Sh.M.(2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. O'zbekiston.
2. Curtis, V.S.(2007). The Iranian Revival in the Parthian Period. Tauris.
3. Mellor, R (2012). The Historians of Ancient Rome. Routledge.
4. Adalian, R.P.(2010). Historical Dictionary of Armenia. Scarecrow Press.
5. Bagnall, R.S.(2012). The Encyclopedia of Ancient History. Wiley-Blackwell.
6. Campbell, B.(2017). The Oxford Handbook of Warfare in the Classical World. Oxford University Press.
7. Chahin, M.(2018). The Kingdom of Armenia. Routledge.
8. Hornblower, S. (2012). The Oxford Classical Dictionary. Oxford University Press.